

Bobomurodova Qunduz Abduxakim qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bronza davrida O'rta Osiyo janubida (shu jumladan, Surxon vohasida) ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar va ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning tobora kengayib borishi, shuningdek kulolchilik, bronzaga ishlov berish va kasb-hunarning boshqa sohalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Sopollitepa, Jarqo'ton, bronzadan yasalgan xanjarlar, o'q uchlari va nayza paykonlari, pichoqlar, boltalar, jez ignalar, bronza buyum-halqalar, bilakuzuklar, jez oynalar, munchoqlar, kulolchilik charxi, patriarxal urug'.

Yozma manbalarda yoritilmagan bronza davri tarixi va madaniyatini faqat arxeologiya materiallari asosida tiklash mumkin. Ular moddiy va ma'naviy madaniyat, iqtisodiy munosabatlar va ijtimoiy aloqalar tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy rekonstruksiya jarayonida quyidagilarni ochib berish muhim:

1. Turar joylarning topografiyasi va me'morchilik tarxi, alohida uy-joylardagi xonalarning funksiyasi.
2. Tabiiy sharoit (paleogeografiya, paleoekologiya), moddiy ishlab chiqarish imkoniyatlari, hayot sharoiti, inson turmush tarzi, antropogen landshaftning rivojlanishi.
3. Jamoalarning iqtisodiy tuzilishi, xo'jalik shakllari, xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilik darajasi, paleodemografiya, oila va jamiyat. Bronza davri Sopollitepa aholisi A.A.Asqarovning fikriga ko'ra, ko'p xonali uy-joylarda yashagan va urug' jamoalariga birlashgan 8 ta katta oilalar a'zolaridan iborat bo'lgan. Ular tomorqa yerlari, chorva, ishlab chiqarish qurollari, ro'zg'or buyumlari va qishloq xo'jalik mahsulotlari zahiralarga ega bo'lib, mustaqil xo'jalik yuritgan va katta ijtimoiy tuzilish (manzilgoh) doirasida hayot kechirgan¹. Huddi shunday holat bronza davri Dashtli vohasi misolida, ya'ni katta patriarxal oilalarga mansub ko'p xonali turarjoylar Shimoliy Afg'onistonda aniqlangan, biroq bu yerda dehqonchilik jamoalari uy-joylari qatorida saroy va ibodatxonalar kabi katta inshootlar qoldiqlari topilgan².

Keyin bunday imoratlar Janubiy O'zbekistondagi Jarqo'ton shahar xarobasida ham aniqlangan³.

Er. av. III ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlab, O'rta Osiyo metallurgiyasi texnologiyasiga bronza texnologiyasi kirib keladi va bronza davri boshlanadi. Shu bilan birga III ming yillik boshi II ming yillikdan boshlab Yaqin Sharqdan O'rta Osiyoga BMAK tarqaydi. Turkmanistonda Oltintepa ustki qatlami Namozgoh IV yodgorliklari Murg'ob quyi oqimidagi Gonur, To'g'oloq, Taip va boshqa vohalardagi katta kichik shaharlari, O'zbekistonda Ko'zali, Bo'ston, Sopolli, Janubiy Turkmanistonda Kongur IV va Boir shu davrga oid. Bu davrda sopol ishlab chiqarish texnologiyasi tubdan o'zgaradi. Bularning 90% dan ko'pi maxsus kulolchilik charxida yasalgan bo'lib, juda nafis yuqa jarangdor loydan ishlangan. Kulolchilik mahsulotini bo'yoq bilan bo'yash mutlaqo yo'qoladi. Ayrim sopol siniqlarida turli nishonlar, hayvonlar, qushlar yo daraxtni sxematik tasvirini uchratishimiz mumkin. Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklarining kulolchilik ustaxonalari

¹ Аскарлов А. Девнеземледельческая культура эпохи бронзы... С. 142-143.

² Сарияниди В.И. Древние земледельцы Афганистана... С. 132-135.

³ Сарияниди В.И. Древние земледельцы Афганистана... С. 134-135.

tadqiqotlaridan olingan ma'lumotlariga ko'ra kulolchilik mahsulotlari katta-kichik ikki qavatdan iborat bo'lgan xumdonlarda pishirilgan. Xumdonlarning quyi qismida olov yoqilib unda maxsus teshik panjara bilan ajratilgan ustki qismida bevosita kulolchilik mahsuloti terib pishirilgan. Sopollitepa xumdonida esa xumdonni quyi qismi panjara bilan ajratilmagan bo'lsada xumdonning quyi tor bo'lib, ustki gumbazi kengroq bo'lgan va idish xumdonning ostki va ustki zinasiga terilgan. Bronza davri o'troq madaniyat idishlarining deyarli hammasi juda nozik ishlangan bo'lib, qizil angob bilan bo'yalgan va aksariyat holatda bo'g'zi tor idishlar tashqari tarafdin, gardishi keng og'zi ochiq idishlar ichki tarafdin bezatilgan. Idishlarning 4-5 % i qo'lda yasalgan, loyi tarkibiga shamot va dresva qo'shilgan qozon va tovoqlardan iborat. Bularning bir qismi ham angob berilgan bo'lib, tashqi tomondan sayqallangan. Dasturxon, taom, suzish, suyuqlik ichish bolalarda xizmat qiladigan idishlarning formasi turli-tuman kosa, vaza qadah, choynak, tovoq, tog'aracha, piyola. Bundan tashqari xumcha, ko'za, turli xurma va xurmachalar ishlatilgan. Asqarov, Sarianidi, Shirinov va boshqa mutaxassislar BMAK kulolchiligi mahsulotlari ichida turli tipdagi mahsulotlarni ajratadilar: oyoqlik vazalar, turli konussimon vazalar, konussimon tog'aralar, konussimon kosalar, oyoqli va oyoqsiz qadahlar, konussimon va bikonik qadahlar, sharsimon, qovunsimon xurmachalar, dastali va dastasiz, jo'mrakli va jo'mraksiz choynaklar, turli xum va xumchalar, 4-5 tipdagi ko'zalar, naysimon jo'mrakli kosa va xurmachalar, turli-tuman miska yoki tog'orachalar, bankasimon idishlar, patnoslar, yalpoq tavalalar, bundan tashqari kam uchraydigan shakldagi idishlar guruhiga gultuvak, silindrsimon, butilkasimon idishlar ifodalangan. Bundan tashqari keng konussimon podstavkalar ular qozon xumlarni erga o'rnatishga xizmat qilgan. Yana bir uchraydigan kulolchilik mahsulotlaridan biri sopol qovurlar, ya'ni bu jihatdan o'ndan ko'p turli tipdagi kulolchilik idishlari ichida ularning bir necha o'ndan ortiq variantlarini, turlarini ajratish mumkin. Bu mahsulot janubi Kaspiy mintaqasi Gorgan viloyatiga xos bo'lib, savdo-sotiq, ayirboshlash natijasida BMAK hududlari, qishloqlari va ilk shaharlariga tarqagan.

Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa xo'jaligida ro'y bergan buyuk madaniy ixtiro edi. Yangi metall harbiy qurollarning turini ko'paytirdi, ularning hili va jangovarligini oshirdi. Bronzadan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari ham paydo bo'ldi, ammo bronza mehnat qurollari ishlab chiqarish uchun nodir va kamyob metall bo'lib qolaveradi. U mehnat qurollari yasashda tosh xomashyosini uzil-kesil siqib chiqara olmadi, chunki dastlab bronzadan munchoqlar, uzuklar, to'g'nag'ichlar yasalgan. Ular asosan zeb-ziynat buyumlari edi.

Bu davrda bronzadan asosan turli bezaklar, uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumlari, g'arbiy qurol-aslahalar va mehnat qurollari yasaydigan maxsus temirchilik, chilangarlik va zargarlik ustaxonalari vujudga keldi. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi bilan mintaqalararo ayirboshlash kuchaydi. Kishilik jamiyati tarixida birinchi marta muntazam mol ayirboshlash imkoniyati bevosita dehqonchilik va chorvachilikning bir-biridan ajralishi va hunarmandchilikning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Sopollitepadagi qabrlarda o'liklar sopol idishlar, qurol-yarog'lar va zeb-ziynat buyumlari bilan birga ko'milgan. Erkaklar qabrlaridan 26 ta metall qurol, ayollar qabrlaridan 104 ta bronza buyum-halqalar, bilakuzuklar, jez oynalar va munchoqlar topildi. Sopol idishlar kulolchilik charxida yasalgan, asosan naqshsiz va to'g'ri simmetriyali buyumlardan iboratdir.

Yodgorliklarning madaniy qatlamidan va qablardan topilgan topilgan idishlar 14 xilga bo'linadi: vazasimon idishlar, tovoqlar, kosalar, tuvaklar, xumlar, xumchalar, choynak va piyolasimon idishlar, toshdan, yog'ochdan va bronzadan ishlangan idishlar. Xilma-xil kulolchilik buyumlari uy-ro'zg'orida chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini saqlash uchun ishlatilgan.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-9

Moddiy manbalar Sopollitepada metallchilik yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Bronzadan xanjarlar, o‘q uchlari va nayza paykonlari, pichoqlar, boltalar, jez ignalar, idishlar ishlangan. Bronza metallurgiyasi hunarmandchilik ustahonalarini vujudga keltirdi.

Sopollitepa moddiy manbalari uy hunari yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Odamlar loydan, suyakdan, toshdan, yog‘ochdan va charmdan xilma-xil buyumlar yasaganlar. Bronza davrida kiyimlar matolardan tikilgan. Sopollitepa matolari jun va zig‘ir tolasidan to‘qilgan bo‘lishi mumkin. To‘qimachilikka oid sopol va toshdan ishlangan urchuqlar topilgan.

Patriarxal urug‘ning rivojlanishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi bilan katta jamoa oilalarining boyluk orttirishlari uchun qulay vaziyat yaratilgan. Qabrlardan topilgan buyumlar dastlabki mulkiy tengsizlikdan darak beradi. Sopollitepadagi 39 ta qabrdan sopol idishlardan tashqari metall qurolar va zeb-ziyat buyumlari, ayrim qabrlardan 5-35 ta sopol idish topildi.

Katta patriarxal oilalarga mansub bronza tamg‘alar topilgan. Buyumlarda burgut, ilon, tuya va boshqa hayvon rasmlari bor. Olimlar fikricha, ular urug‘larning totemlari bo‘lgan.

Jarqo‘tondan tosh, metall va suyakdan yasalgan ikki mingdan ortiq mehnat qurollari va nusxalari (votivnye kopii) topilgan bo‘lib, ularning aksariyati dehqonchilik bilan bog‘liq mehnat qurollaridir⁴. Ibtidoiy jamiyat tarixida eng dolzarb masalalardan biri bu metall buyumlar va metallga ishlov berishning shakllanishidir. Metallurgiya va metallga ishlov berish iqtisodiy hayotning eng muhim sohalaridan biri hisoblanib, texnologik taraqqiyot darajasini belgilaydi. Aynan metallurgiyaning shakllanishi xo‘jalik hayot hamda ijtimoiy munosabatlar rivojida muhim ahamiyat kasb etgan⁵. Metalldan ishlangan mehnat qurollarining paydo bo‘lishi qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ham tezlashtirgan. Umuman olganda, O‘rta Osiyo hududida metall konlari (mis, qalay, qo‘rg‘oshin va boshqalar) bir tekis joylashmagan, shunga ko‘ra konchilik va metallurgiya sohaları rivoji mintaqahududlarida turli darajada rivojlangan. Masalan, mis konlari Markaziy Qizilqum va Farg‘onada, Markaziy Qozog‘iston, Zarafshon daryosi yuqori va o‘rta oqimlari hududlarida va boshqa joylarda aniqlangan⁶. Shuni ham ta‘kidlash joizki, mis konlari dunyoning ko‘pgina mintaqalarida tarqalgan bo‘lsa-da, qalay konlari kamyob sanaladi. Keng rivojlangan bronza sanoatiga qaramasdan, Yaqin Sharqda ham qalay konlari deyarli yo‘q bo‘lgan va qalayning mintaqada yoyilishi borasidagi masala qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘lmoqda⁷. Ko‘plab tadqiqotchilar metal, ayniqsa qalay uchun xomashyo bazasi aynan O‘rta Osiyo bo‘lgan deya hisoblaydilar. O‘zbekiston hududida (Qarnob, Lapas va CHangali) va Tojikiston hududida (Mushiston va Takfon) bronza davriga oid qalay konlari o‘rganilgan bo‘lib, ular mintaqada konchilik rivojiga ham turtki bo‘lgan. Lekin, K.Kaniut fikricha “qalay masalasi” borasida xulosalar chiqarishga hali erta, bu bo‘yicha kelajak tadqiqotlari aniq xulosalar chiqarishga imkon beradi⁸. Tadqiqotchilar Evrosiyo bronza davri madaniyatlari, ulardan aniqlangan metall buyumlarning tahlili asosida O‘rta Osiyo orqali o‘tgan “Bronza yo‘li” hamda uning

⁴ Аскарлов А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд – 1993.

⁵ Кузьмина Е.Е. Металлические изделия энеолита и бронзового века в Средней Азии. – М.: Наука. 1966. – С. 5.; Аванесова Н.А. Эпоха бронзы Средней Азии. – Самарканд, 1989. – С. 5.

⁶ Ҳасанов А.С., Асқарова Н.М. Қадимги давр маъданчилиги. – Тошкент: Мухаррир. 2011. – Б.33.

⁷ 3 Kaniuth K. The metallurgy of the late Bronze Age Sapalli culture (Southern Uzbekistan) and its implications for the “tin question” // *Iranica Antiqua*, Vol. XLII, 2007. – P. 23-40; Бороффа Н., Парцингер Г. Исломгача бўлган даврда Тожикистон ва Ўзбекистонда қалай қазиб чиқариш // Қозоғистон, Тожикистон, Туркменистон ва Ўзбекистонда археологик тадқиқот ишлари. – Берлин. 2010. – Б. 55-57; Garner J. Bronze Age tin mines in Central Asia // *Archaeometallurgy in Europe III*. – Bochum, 2015. – P. 135-143.

⁸ Kaniuth K. The metallurgy of the late Bronze Age Sapalli culture (Southern Uzbekistan) and its implications for the “tin question” // *Iranica Antiqua*, Vol. XLII, 2007. – P. 35.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-9

mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotida tutgan o‘rni borasida ham qayd etganlar⁹. Shuni alohida qayd etish joizki, mis, qalay va qo‘rg‘oshin kabi metallar qo‘shilmasi asosida bronza metallini yaratilishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda katta siljishlarga sabab bo‘ldi. Mis va bronza qurollardan xo‘jalikda keng foydalanilishiga qaramay ular tosh qurollarni to‘liq siqib chiqara olmagan. Janubiy O‘zbekiston bronza davri metallurgiyasi borasidagi tadqiqotlar¹⁰ tahlili asosida masalani yoritish mumkin. Bronza metalli tarkibini kimyoviy jihatdan tahlil qilish orqali uning bir necha tiplari farqlanadi. Sopollida topilgan 41 % bronza buyumlar qalay tarkibli bronzadan tayyorlanganligi qayd etilgan¹¹.

Jarqo‘ton qabrisonida 730 dan ortiq bronza davriga oid go‘rlar qazib ochildi. Topilgan buyumlar orasida bronza idishlar, xanjarlar, pichoqlar, zeb-ziynat buyumlari, sopol idishlar va chaqmoqtoshdan ishlangan nayza paykonlar bor. Ayollar qabrlaridan lojuvard, serdolik va feruza toshdan ishlangan munchoq va marjonlar topildi.

Qabrisonidan kulolchilik charxida yasalgan juda ko‘p sopol buyumlar chiqdi. Odamlar idishlardan juda keng foydalanganlar va sopol esa moddiy madaniyatning muhim qismi bo‘lgan.

Sopollitepa va Jarqo‘tondan topilgan metall buyumlar qiyosiy jadvali¹²

	Qalay Bronza (Sn>3%)	Mishyak (arsenik) bronza (As>3%)	Qo‘rg‘oshin bronza (Pb>3%)	Tarkibida kam miqdorda qalay bo‘lgan mis (Sn 1- 2,99%)	Tarkibida kam miqdorda arsenik bo‘lgan mis (As 1- 2,99%)	Mis (Sn, As, Pb<1%)	Umumiy
Sopollitepa	31	29	16	4	13	2	95
Jarqo‘ton	6	12	3	1	27	6	55
Umumiy	37 (25%)	41 (27%)	19 (13%)	5 (3%)	40 (27%)	8 (5%)	150 (100%)

Sopollitepada tadqiq etish jarayonida o‘rganilgan moddiy manbalar metallsozlik yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Bronzadan xanjarlar, o‘q uchlari va nayza paykonlari, pichoqlar,

⁹ Radivojevic M., Kuzmanovic-Cvetkovic J., Rehren Th., Jovanovich M. Why are tin bronzes in the 5th millennium BC Balkans // *Archaeotechnology: studying technology from prehistory to the Middle Ages*. Belgrade, 2014. – P. 235-256.

¹⁰ Рузанов В.Д. Технический прогресс в металлообработке у древнеземледельческих племен эпохи бронзы юга Средней Азии // *Технологический и культурный прогресс в раннеземледельческую эпоху*. – Ашхабад: Ўлим, 1987. – С. 43.

Рузанов В.Д. К вопросу о истоках оловянистых бронз в металлообрабатывающих производствах племен юга Средней Азии в эпоху бронзы // *ИМКУ*. – Самарқанд, 1999. Вып. 30. – С. 37-40.

¹¹ Рузанов В.Д. Технический прогресс в металлообработке у древнеземледельческих племен эпохи бронзы юга Средней Азии // *Технологический и культурный прогресс в раннеземледельческую эпоху*. – Ашхабад: Ўлим, 1987. – С. 43.

¹² Kaniuth K. The metallurgy of the late Bronze Age Sapalli culture (Southern Uzbekistan) and its implications for the “tin question” // *Iranica Antiqua*, Vol. XLII, 2007. – P. 30.

boltalar, jez ignalar ishlangan¹³. Har bir patriarxal jamoa yashash qismida metall eritish ustaxonalari mavjud bo'lgan. Masalan, Jarqo'tondan aniqlangan ibodatxonani qazish jarayonida, uning xo'jalik-xizmat qismidan maxsus chilangarlik ustaxonasi ochilgan. Supa ustida qurilgan 5 ta o'choq topilgan. Bu o'choqlar bronza hom ashyosini eritish pechlarida deya e'tirof etilgan¹⁴. Jarqo'tondan bronza ishlab chiqarish bilan bog'liq hunarmandlar massivi ochilgan. Yodgorlikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida yuzlab bronzadan ishlangan mehnat va harbiy qurollar, zebi-ziynat buyumlari, urug' jamoa totemlari aks ettirilgan muhrlar, jamoa oqsoqollari va sardorlarining ijtimoiy nufuzidan dalolat beruvchi tamg'a va tumorlar topilgan¹⁵.

Janubiy O'zbekiston bronza davri yodgorliklarining turli bosqichlaridan jami 30 ta xumdon aniqlangan bo'lib, topilgan barcha xumdonlarni 3 tipga ajratish mumkin:

1. Bir kamerali, yarim yer osti
2. Bir kamerali, ikki maydonli yer usti xumdonlar
3. a) ikki kamerali, ikki yarusli, kichik hajmli
b) ikki kamerali, ikki yarusli, katta hajmli¹⁶.

Sopol buyumlar kulolchilik charxida ishlangan, ularning turli xil shakllari – oyoqli vazalar, qadahlar, konussimon idishlar, xumlar, qozonlar va boshqa shu kabilar aniqlangan. Aksariyat sopol buyumlarining sirtida xochsimon, ovalsimon naqshlar uchrashini hisobga olmaganda sopol buyumlar sirtida naqshlar deyarli kuzatilmaydi. Miloddan avvalgi II mingyillikning boshlaridan keng maydonchali va termostat texnologiyasi ancha rivojlangan ikki yarusli xumdonlardan foydalanila boshlangan. Tillabuloq yodgorligida xumdonlarda issiqlik haroratini bir me'yorda saqlab turishni ta'minlovchi sopol tig'ning topilishi bronza davri kulollarining termostat texnologiyasidan samarali foydalaniligidan darak beradi¹⁷.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, Janubiy O'zbekistonda bronza davri mehnat qurollari hamda qurol yarog'larning paydo bo'lishi va keng tarqalishi, shu bilan birgalikda boshqa qator belgilar: patriarxal munosabatlarning qaror topishi, chorvador qabilalarning ajralib chiqishi, qadimgi sivilizatsiyaning shakllanishi, mulkiy tengsizlikning paydo bo'lishi, qabilalar o'rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalarning kuchayishi bilan belgilanadi. Shuningdek, ko'rib chiqilayotgan davrda kulolchilik yangi bosqichga ko'tarildi. Yuqori sifatli sopol buyumlar, tayyorlanadigan sopol buyumlarining miqdoriy ko'rstakichlarini oshishida sopol xumdonlarning ahamiyati katta bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аскарлов А. Девнеземледельческая культура эпохи бронзы... С. 142-143.
2. Аскарлов А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд – 1993.
3. Кузьмина Е.Е. Металлические изделия энеолита и бронзового века в Средней Азии. – М.: Наука. 1966. – С. 5.; Аванесова Н.А. Эпоха бронзы Средней Азии. – Самарканд, 1989. – С. 5.

¹³ Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент: Ўқитувчи. 1990. – Б.128.

¹⁴ Асқаров А. Энг қадимий шаҳар. – Тошкент, 2001. – Б. 17.

¹⁵ Асқаров А. Энг қадимий шаҳар... Б. 9.

¹⁶ Раҳманов У. Керамическое производство эпохи бронзы южного Узбекистана. Дисс... канд. ист. наук. – Самарканд, 1987.

¹⁷ Раҳимов К.А. Сополли маданиятининг хумдонлари // "Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари" мавзусидаги Республика илмий конференция материаллари. 1-қисм. – Самарқанд, 2016. – Б. 18.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-9

4. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент: Ўқитувчи. 1990. – Б.128.
5. Рахманов У. Керамическое производство эпохи бронзы южного Узбекистана. Дисс... канд. ист. наук. – Самарканд, 1987.
6. Рузанов В.Д. Технический прогресс в металлообработке у древнеземледельческих племен эпохи бронзы юга Средней Азии // Технологический и культурный прогресс в раннеземледельческую эпоху. – Ашхабад: Ёлым, 1987. – С. 43.

